

FARG`ONA VODIYSI JADIDCHIMA`RIFATPARVARLARNING PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA TALABALARING MILLIY MA`NAVIYATINI SHAKILLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

Abdurazzoqova Feruzaxon
ADU "Umumiy pedagogika" kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxirlarida Farg`ona vodiysida vujudga kelgan jadidchilik harakati va uning namoyondalarini ma`rifat uchun kurashda amalga oshirgan ishlari haqida to`xtalib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Vatan, millat, jadidchilik, ma`naviyat, marifat, madaniyat, ijtimoiy siyosat, yangi usul mактаблари, Maorif maktabi, ijodkor, harakat.

Аннотация: Данная статья посвящена движению джадидизма, вознившему в Ферганской долине в конце XIX века, и деятельности его представителей в борьбе за просвещение.

Ключевые слова: Родина, нация, модернизм, духовность, просвещение, культура, социальная политика, школы нового метода, Школа образования, творец, движение.

Abstract: This article focuses on the Jadidism movement that arose in the Fergana Valley at the end of the 19th century and the work of its representatives in the struggle for enlightenment.

Key words: Homeland, nation, modernism, spirituality, enlightenment, culture, social policy, new method schools, Education school, creator, movement.

Mamlakatimiz mustaqillik yillarda ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma jahbalarida: o`zlikni anglash, ma`naviy – ma`rifiy qadriyatlarni chuqur idrok etish va xalqqa yetkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan ishlar amalgam oshirildi. Ma`naviy hayotni yuksaltirishda yoshlarning ta`lim-tarbiyasi , dunyoqarashi, tarixiy o`tmishimizni, milliy qadriyatlarimizni anglash davlat ahamiyatiga ega bo`lgan masalalar sirasiga aylandi.

Jadid pedagoglari ham yoshlar tarbiyasi masalasiga hayot yoki mamot masalasi deb qaraganlar. Shu ma`noda, Farg`ona vodiysi jadidchi - ma`rifatparvarlarining qarashlari asosida talabalar milliy ma`naviyatini shakllantirish mumkin.

Jadidchilik harakatining tamal toshi jadid mактабларidir. Bu- jadidshunoslar tomonida yakdil e`tirof etilgan fikr. Bu harakatning asl maqsadi millatning o`zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish, millat, Vatan istiqlol edi. Ma`lumki bunday buyuk o`zgarishlarni yangi avlodgina amalga oshira oladi. Buning uchun taraqqiy etgan millatlar bilan hamqadam avlodni tarbiyalab yetishtirish kerak. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug`bek, Navoiy kabi buyuk mutaffakirlarni tarbiyalab yetishtirishgan an`anaviy mahalliy mактаблар XVI asrdan boshlab jahon taraqqiyotidan butunlay uzulib qolgan, buning ustiga, mustamlaka tuzumi tufayli parokanda ahvolga tushgan, mahalliy mактаблар va ta`lim-tarbiya tizimi bilan buyuk vazifani bajarish mumkin emas edi. Shuning uchun mahalliy mактабларни tubdan isloh qilish, zamon talablariga javob bera oladigan mактаблар, oilyi o`quv yurtlari tashkil qilish jadid mutafakkirlarining birlamchi va asosiy vazifasiga aylandi. Jadid pedagoglari ibridoiy mактабларни “usuli” (“tovush usuli”) metodi asosida qayta tiklash masalasini davlat siyosati darajasiga ko`tardilar; daslabki alifbolar , aniq fanlar bo`yicha darsliklar, o`qish kitoblarini yaratdilar. Gubernatorlik ma`murlari , mutassib ulamolar qarshiliklarini yengib, zamon talablariga javob bera oladigan o`qituvchi- kadrlar zumrasini tarbiyalab yetishtirdilar. Ularning bunday faoliyati keskin kurashlar, ta`qib va taazyiqlar jarayonida kechdi.

XIX asr oxirlarida vujudga kelgan Farg`ona vodiysidagi jadidchilik harakati xx asrning 10-15 yillariga kelganda siyosiy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi rivojlanish bosqichini bosib o`tdi. Vatan va millat taraqqiyoti uchun Farg`onalik jadidlar turli xil yo`nalishlarda faoliyat ko`rsatdilar.

Jumladan:

- 1.Ular jamiyatda ijtimoiy siyosiy kelishuvlar o`tkazishni muhim masala deb bildilar.
2. Ma`rifat uchun kurash taraqqiyparvarlarning asosiy diqqat markazida turdi. Ma`rifatni ular keng ma`noda tushundilar.
- 3.An`anaviy sharq ma`rifatchiligi namoyondalari shoira Dilshod otin, Anvar otin, Muqumiy, Furqat,

Nodira, Zavqiy, Xamza kabi davr ijodkorlarining asarlari jadidchilar ma'rifat uchun ma'naviy ruhiy zamin bo'ldi. Shu bois milliy ma'rifatparvarlarning tarmoqlarini xususan vodiyya qaror toptirdilar.

4. Ana shu davrda vodiyy jadidchilari orasidan Turkiston jadidchilik harakatini rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan. Ko'plab taniqli namoyondalar yetishib chiqqan. Ular jadidchilik harakati tarihida o'ziga hos o'ringa egadirlar. Biroq ularning isjtimoiy siyosiy pedagogik qarashlari to'liq tadqiq etilgan emas.

5. Vodiylik Obidjon Mahmudov yirik sarmoyador millatimiz orasidan etishib chiqqan. Birinchi tog'kon injineri; Is'hoqxon Ibrat yirik lug'atshunos, tilshunos olim, tarixchi va shoир; Abdulhamid Cho'lpon va Muhammadsharif So'fiyzodalar mashxur jadid adib va shoirlari, Ibrohim davron esa atoqli taraqqiy parvar publistik Abdulvahhab Ibodiy, Dadamirza qorilar esa yangi usul maktablari uchun darsliklar yozgan, taniqli muallif va muallimlar edilar.

6. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka yetaklashdek muqaddas g'oya eng ilg'or jadid ziyołilarining diqqat markazida bo'lgani holda mavjud sharoitda uni amalga oshirish mushkul edi. Unga faqat tinimsiz ma'rifiy siyosiy mano orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan yetuk mutaxasislarsiz tasavvur eta olmaganlar, shu maqsad yo'lida o'tgan asr oxirlarida jadidlar butun uylarda xususan Farg'ona vodiysida xali yangi usul maktablari ochish zarurligini angladilar va ularni tashkil etish uchun harakat boshladilar.

Shunday maktablarning tashkil topishiga bir tomongan chor imperiyasi ma'murlari, ikkinchi tomongan ijtimoiy vogelikka o'zining tor dunyo qarashiga nuqtai nazardan baho beruvchi mutaassib kishilar to'sqinlik qildilar.

Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma'murlar nazaridan chetda qolmagan, albatta. XX asr bo'sag'asida o'lkamizda yangi usul maktablarning mayda bo'lishi ham ularni g'oyatda tashvishga solgan. O'sha davrda chop etilgan rus tilidagi matbuot vositalarida mahalliy xalqlarning maorif tizimi yangi va eski maktablarida o'quv tarbiya masalalarini yoritishga keng o'rinn berilgan. Xalq maorifi soxasida rus tuzem maktablari bilan yonma yon yangi usul maktablarning mayday bo'lishi sira ko'z yumib bo'lmaydigan hol ekanligi bu maktablar zamon talablari asosida kelib chiqqanligini 'turkistanskiye vedamosti' 1909 yil 1-sonida ta'kidlab o'tilgan. Eski usul maktablari bolalarga asosan diniy tarbiya berish bilan cheklanganligi; zamonaviy ilm-fanlarining o'qitilishi bu maktablar uchun yot hodisa ekanligini va shu sababli ham bu maktablarda mustamlakachilar uchun xavar tug'dirmasligini chor ma'murlari yaxshi tushunib yetganlari holda yangi usul maktablariga jiddiy etibor qaratisha boshladilar. Shu sababli xam Turkistonda maktab ishlarini asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak, deb bildilar: "dars berish uslublariga ko'ra, dasturlar bo'yicha va butun tuzilishi bo'yicha bu yangi maktablar hayot talablariga nisbatan javob beradi... Ular xalq turishiga kira borib yerilarni qo'zg'altiradi va qoloqlikdan chiqaradi"

Bergan har qanday ma'rifatli ishiga chor ma'murlarining yangi usul maktablariiga ana shunday baxo berish, tan olish jadidchilik xarakatining qo'lga kiritishgan juda katta g'alabasi edi. Fikrimizning isboti uchun quyidagi isbotni keltiramiz; "Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari bosh nazoratchisi O. Kerenskiy 1909-yil 12-yanvarda Farg'ona viloyati harbiy gubernatoridan yangi usul maktablari, ularning ochilish sabablari, qachon va kimlar tomonidan ochilgani haqida ma'lumot berishni so'rashdi" Farg'ona viloyati o'quv yurtlari inspektori F. Igoriv Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari inspektoriga bunday maktablar dastlab ruhsatsiz va yashirin suratda ochilganligi haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga u bu maktablarning yopilishi yoki faoliyatining taqiqlanishi mahalliy aholi orasida keskin norozilikni kelib chiqishiga olib kelish mumkinligini ham tariflab o'tadi. Yangi usul maktablari yozish uchun qonuniy asos bo'lmaganligi sababli, ular uchun alohida dastur va qonun ishlab chiqishni taklif qiladi. Farg'ona vodiysida eng dastlabki jadid maktablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

- Qo'qon uyezdida Ahmadjon qori maktabi, 1892- yil;
- Mir Abbos maktabi, Qo'qon 100 nafar o'quvchisi bo'lgan, 1893- yil
- Usta Bakavul maktabi, Qo'qon 115 nafar o'quvchisi bo'lgan. 1899 yil.
- Hambaboy masjidi kishidagi maktab -Qo'qon 25 nafa o'quvchi o'qigan, 1899-yil
- Zang -Xasan mahallasidagi maktab- Andijon 35 o'quvchi o'qigan 1900 yil Hamza xakimzoda Niyoziy o'zbek xalqining to'ng'ich pedagoglaridan biridir. U 1900- yilda Toshkentning Qashqar darvozasida 1911- yilda Ho'jantda xonabek huzurida, 1914- yilda Marg'ilonda, oradan 8 oy o'tgach yana

Qo`qonda yo`qsil bolalar uchun maktablar ochgan. Ana shu yo`sanda bolalar uchun ochilgan yangi usul mактабларидан bir, ikkita lavhani kichik iqtibos etilishi bu o'rinda lozim topgan.

“ 33 da bola yig`ilgani ham ular Alifni kaltakdan farq qila boshlagani ham, hisob donasi o`rniga o`tayotgan yong oqlarni biron tachaqib yeb qo`ymagani ham, ruscha so`zlashni mashq qilayotganda jumla to`g`ri bolalarning hayratdan ko`zi yaltirashi hamma hammasi Hamzani hursand qilardi.”

1915- yilning kunlaridan birida yahshiroq ko`zoynakli Yunushon kirib keldi va gap boshladi :

- Mazur tuting, Hamza afandi! Hokim hazrati qiziqyaptilar, mактабингиз bilan. Bu o`zi qanday mактаб deyaptilar.

- Ko`rib turibsizki, oddiy ibridoiy mактаб. Mактаб dorilaytoli. Savoblikka yetimlarni o`qityapmiz. Xat savod o`rgatdik, xissob ham.

- Shundoqdiru, ammo lekin bizga tushgan malumotlarda boshqa gaplar bitilgan. Dorilaytomda potishohi olamning yetimparvarlikka shak keltirilipdi. Darshonada Quroni tilovati eshtilmashmish. Shariyatda bolalar salsa o`rashni ham bilishmasmish! Shu arizani Medinskiy janoblariga nima deb tarjima qilishga hayronman. Biror tuzukroq sovg`a salom bilan hazratning ko`ngillarini olib, shikoyatni gumdon qilmasam, sizga jabr bo`larmikin deb qo`rqaman. Nima keragi bor sizga shu tashvishlarni? Bu gadovvachchalardan bir kun qassob chiqib bir qadoq go`shtni bizga besuyak sotarmidi?

- Bolalardan kim chiqishini taqdir biladi. Ammo yetim xaqini egandan ko`ra, siz xam xazratingiz xam qassobguzarga borib beztiring!

- Yunusxon tilmoch darshonadan o`qday otilib chiqqanicha hokimning oldiga yetkanda ham tili g`uldirar, arizani uzatayotgan qo`li dir-dir titrardi...

Ushbu diyalokdan ko`rinadiki, eski usul mактаблари bilan yangi qadam tashlayotgan jadidi usul mактаблари, chorazlening yugurdak malaylariga otlangan laganbardor amaldorlar bilan Farg`onalik jadid marifatparvarlari o`rtasidagi qarama qarshilik va ziddiyatlar oson kechmagan. Biroq jhar qachon va har bir davorda yangilik eskilik ustidan g`alaba qilgani oydek ravshan. Mashxur shoir va adib pedagog murabbiy Isxoqhon Ibrat haqida uning dastlabki yangi usul mактabi vodiyyagini debocha o`quv maskani sifatida ayrim adabiyotlarga eslatiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO`YXATI

- 1.I.A.Karimov. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch T., «ma`naviyat» 2010 y.
2. 1-I fond. Kantselyariya Turkestanskogo generala-gubernatora:
3. 47-I fond. Upravlenie uchebniymi zavedeniyami Turkestanskogo kraya.
4. 276-I fond. Kantselyariya voennogo gubernatora Ferganskoy oblasti:
5. 19-I fond . Ferganskoe oblastnoe pravlenie
6. Alimova, D.Rashidova. Maxmudxo`ja Bexbuliy i ego istoricheskie vozzrenie. – Tashkent : Manaviyat , 1998 . – 40 s.
7. O`zbek pedagogikasi antologiyasi T.O`ituvchi 1995 y
8. V boyax za Sovetskuyu Vlast` v Ferganskoy doline. Vospominaniya uchastnikov Oktyabrskoy Revolyutsii i grajdaskoy voyniy. 1917-1923 g. g. – T AN UzSSR , 1957 .208 s
9. Jadidchilik islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy tuplam № 1 . – t : 1999. – 220 b.
- 10.Jalolov A. O`zganboev X.O`zbek ma`rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o`rni. Toshkent: Fan. 1993. – 116 b.
11. Istorya Kokanda (S momenta prisoedineniya Sredney Azii k Rossii do nastoyashego vremeni) . - T Fan, 1984. 216 s.
12. XX asrnig dastlabki o`ttiz yilligida O`zbekistonda tarix Fani (tarixshunoslik ocherklari) I-qism.- T:Fan ,1994.-392.b.
13. Nosirov O., Ma`murov M. O`zbek adabiyotinig muhim sanalari.-Namangan: NamDU, 1993.-70.b.
14. Ocherki istorii Ferganskoy oblasti v Sovetskiy period. Ferganskiy Gosudarstvenny Pedagogicheskiy institut im.Ulugbeka.-T:Fan, 1980.-168s.
15. Pedagogika tarixi.-T:O`qituvchi, 1976.
16. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan.-Toshkent: Fan,1996.83